

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA ZAMONAVIY TENDENSIYALARNING AHAMIYATI

Nurullayev S.S.

Samarqand davlat pedagogika instituti p.f.f.d PhD katta o‘qituvchisi

Olimova G. A.

Samarqand davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo‘lgan xorijiy tillarni o‘rganish va uning ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, xorijiy tillarni o‘rgatish jarayonida motivatsiyasini oshirish, qiziqishini va so‘z boyligini kengaytirish xizmat qiluvchi zamonaviy va pedagogik yondashuvlarning ahamiyati haqida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Xorijiy til, zamonaviy yondoshuvlar, multimedia vositalari, interaktiv o‘yinlar, innovatsiya, texnologiya.*

Annotation: *This article highlights the importance of learning foreign languages, which is considered one of the most relevant issues today. It also discusses the significance of modern approaches that help increase learners’ interest and expand their vocabulary in the process of teaching foreign languages.*

Keywords: *Foreign language, modern approaches, multimedia tools, interactive games, innovation, technology*

Аннотация: *В данной статье рассматривается одна из актуальных проблем современности — изучение иностранных языков и его значимость. Кроме того, освещается роль современных методических подходов, направленных на повышение интереса обучающихся и расширение их словарного запаса в процессе преподавания иностранных языков.*

Ключевые слова: *Иностранный язык, современные подходы, мультимедийные средства, интерактивные игры, инновации, технология.*

Kirish.

Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tillarini o‘rgatish nafaqat o‘yin va oddiy mashg‘ulotlar, balki zamonaviy raqamli texnologiyalar orqali ham ta‘minlanmoqda. Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, xorijiy tillarni erta yoshdan o‘rgatish bolalarda nafaqat til kompetensiyasini rivojlantiradi, balki ularning tanqidiy fikrlashi, madaniyatlararo muloqotga tayyorligi hamda ijtimoiy moslashuvchanligini ham kuchaytiradi. Shu sababli xorijiy til ta‘limida ilg‘or pedagogik texnologiyalar va samarali o‘qitish usullaridan foydalanish zarurati tobora ortib bormoqda.

Rivojlangan mamlakatlar, jumladan, Angliya, AQSh, Germaniya, Koreya, Yaponiya va boshqalarda - maktabgacha ta'lim tizimida chet tilini o'qitishda innovatsion yondashuvlar keng joriy etilgan. Jumladan, CLIL (Content and Language Integrated Learning) -mazmun va tilni integratsiyalashgan holda o'qitish, TPR (Total Physical Response) - harakat asosida o'qitish, hamda Gamification (o'yinlashtirish) metodlari bolalarda o'rganishga bo'lgan qiziqishni oshirishda samarali usullardan hisoblanadi. So'nggi yillarda interaktiv doskalar, planshetlar, robototexnika to'plamlari (Bee-Bot, LEGO WeDo), sensorli stol va turli xil raqamli platformalar kiritilmoqda. Bu jarayonda muhim bo'lgan narsa – texnologiyani “o'zi uchun” emas, balki bolaning yosh xususiyatlariga mos, o'yin shaklida va xavfsiz tarzda qo'llashdir.

Janubiy Koreya – bog'chalarda “AI o'qituvchi” robotlari (masalan, “Alpha Mini”) qo'llaniladi. Robot ingliz tilida ertak aytib beradi, savollarga javob beradi va bolalarning hissiy holatini tahlil qilib, tarbiyachiga tavsiyalar beradi. Yevropa ta'lim tizimida chet tilni o'qitishning asosiy maqsadi — bolalarning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish va leksik kompetensiyasini shakllantirishdan iborat. Shu bilan birga, yurtimiz ta'lim tizimidagi islohotlar ham xorijiy tillarni o'rgatishda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni qo'llashni talab qilmoqda.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, “Turli soha mutaxassisleri o'z ona tilini mukammal bilish bilan bir qatorda, bir nechta xorijiy tillarni bilishlari va ularda erkin muloqot qila olishlari maqsadga muvofiqdir.” Ushbu so'zlar bugungi globallashuv jarayonida til bilishning naqadar muhim omilga aylanganini yaqqol ko'rsatadi. Chet tillarni o'rganish nafaqat shaxsning kasbiy salohiyatini oshiradi, balki uning dunyoqarashini kengaytiradi, madaniyatlararo muloqot madaniyatini shakllantiradi va jamiyatning xalqaro maydonda raqobatbardosh bo'lishiga xizmat qiladi. Shu jihatdan, xorijiy tillarni, ayniqsa ingliz tilini erta yoshdan o'rgatish zamon talabi, ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekistonda ham shunday tajribalarni bosqichma-bosqich joriy etish mumkin va buning uchun juda qulay, arzon va samarali vositalardan biri Wordwall interaktiv platformasidir. Wordwall (wordwall.net) bu o'qituvchi va tarbiyachilar uchun bepul va pullik imkoniyatlarga ega onlayn platforma bo'lib, unda 50 dan ortiq turli xil interaktiv o'yin shablonlari mavjud: “Quiz”, “Match up”, “Anagram”, “Wordsearch”, “Group sort”, “Maze chase”, “Memory game” va h.k. Platforma o'zbek, ingliz, rus tilini to'liq qo'llab-quvvatlaydi, shuning uchun undan bemalol foydalanish mumkin. Ingliz tili mashg'ulotida Wordwallni qanday qo'llash mumkin (amaliy misollar):

Bolalarni so'z boyligini oshirishda va talaffuz ko'nikmasini shakllantirishda quyidagi vazifalarni bajaradi:

“Open the box” shablonida har bir qutida hayvon rasmi va uning nomi yoziladi. Bola qutini ochganda hayvon ovozi chiqadi bola tovushni takrorlaydi shu bilan birga hayvonning

inglizcha nomi talaffuz qilinadi va bola birgalikda uni takrorlaydi. “Anagram” o‘yini orqali 3–4 harfdan iborat oddiy so‘zlarni terish (ona, bola, ota). Bu o‘yin orqali bolalar ingliz alifbosi va so‘zlarni tez o‘rganib olishadi.

“Group sort” – rasmlarni “ko‘p-kam”, “katta-kichik”, “uchburchak-doira” guruhlariga ajratish.

“Image quiz” – mevlar, sabzavotlar, fasllar rasmlarini nomlash.

“Find the match” – hayvon va uning yashash joyini moslashtirish.

Wordwallning afzalliklari:

- Tarbiyachining o‘zi 5 daqiqada o‘yin yaratadi.
- O‘yinlarni interaktiv doska, planshet yoki oddiy kompyuterda ham o‘ynasa bo‘ladi.
- Bolalar individual, juftlikda yoki guruh bo‘lib ishlashi mumkin.
- Statistika ko‘rish imkoniyati bor qaysi bola qayerda xatò qilganini darhol bilib olasiz.

Zamonaviy yondashuv deganda texnologiyani ko‘p ishlatish emas, balki uni o‘yin shaklida, bolaning yoshiga mos, xavfsiz va maqsadli qo‘llash tushuniladi. O‘zbekistonning maktabgacha ta’lim muassasalarida Wordwall, Bee-Bot, Scratch Jr kabi arzon va samarali vositalarni bosqichma-bosqich joriy etish orqali biz ham xalqaro ilg‘or tajribaga yaqinlasha olamiz. Eng muhimi texnologiya hech qachon o‘qituvchi yoki tarbiyachini almashtirmaydi, balki uning yordamchisi bo‘lib qoladi. Bolaning quvonchli tabassumi va “yana o‘ynaymizmi?” degan savoli, bu yangi texnologiyalarning eng to‘g‘ri bahosi bo‘lib qolaveradi.

Innovatsion texnologiyalarni xorijiy til o‘qitish jarayonida qo‘llash bolalarning o‘rganishga bo‘lgan ichki motivatsiyasini kuchaytiradi. Raqamli platformalar, interaktiv ilovalar, virtual muhit va gamifikatsiya elementlari bolalar o‘rtasida ijobiy raqobat, hamkorlik va ijodkorlikni rivojlantiradi. Bu esa o‘qituvchi bilan bola o‘rtasida faol, samimiy va o‘zaro tushunishga asoslangan ta’limiy muhitni shakllantiradi. O‘yin elementlari bilan boyitilgan darslar, masalan, *“Quizlet Live” orqali so‘z yodlash musobaqalari, turli test o‘yinlari, dialog yaratish bo‘yicha rolli o‘yinlar yoki virtual xarita asosidagi “Find the Place” topshiriqlari* esa bolalarning tilni faol qo‘llashga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. Natijada tarbiyalanuvchilar chet tilini puxta o‘zlashtirib, turli millat vakillari bilan samarali muloqot qilish, xalqaro tajriba almashish, madaniy xilma-xillikni anglash va global tafakkurini kengaytirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shu bilan birga, ular o‘rgangan tilning sohiblari bilan erkin va tabiiy muloqotga kirishishga tayyor bo‘lib boradilar.

Innovatsion texnologiyalarga asoslangan yondashuvlar chet tilini o‘rganishda bolalarning ichki motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi. Zamonaviy raqamli vositalar, interaktiv

platformalar va multimediali resurslardan foydalanish o'quvchilar o'rtasida ijobiy raqobat, hamkorlik va ijodkorlik muhitini shakllantiradi. Bu esa pedagog va o'quvchi o'rtasida yanada samimiy, ishonchli va faol pedagogik muhitni vujudga keltiradi. Natijada, chet tilini puxta egallab, turli madaniyat vakillari bilan bemaol muloqot qilish, xalqaro tajriba almashish, madaniy xilma-xillikni anglash hamda global tafakkurni rivojlantirish imkoniga ega bo'ladilar. Shuningdek, ular o'rganilayotgan til sohiblari bilan erkin og'zaki muloqotga kirisha olish darajasiga yetadilar. Interaktiv fleshkartalar, qo'shiqlar, animatsiyalangan lug'at, raqamli so'z izlash va rollarda ishtirok etish kabi turli formatlarda bo'lib, ular bolalarning so'z boyligi, til bilan muloqot qilish, tinglash va talaffuz ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Shuningdek, o'yinlarda faol ishtirok etish, ijodiy fikrlash va diqqatni jamlash kabi muhim ko'nikmalar ham shakllantiriladi. Texnologiyalarni faol qo'llash orqali bolalarning o'rganish jarayonini rang-barang va qiziqarli qilish, shuningdek, ularni zamonaviy raqamli muhitda ishlashga tayyorlash maqsad qilingan. YouTube kabi platformadagi maxsus kanallar va mobil ilovalar tarbiyalanuvchilarning o'z bilimlarini mustahkamlash va kengaytirishga yordam beradi. Ayniqsa, ushbu o'yinlar orqali bolalarda leksik kompetensiya ya'ni tilning leksik elementlarini to'g'ri tanlash, tushunish va foydalanish qobiliyati shakllantiriladi. Bu esa ularning nutqida so'z boyligini mustahkamlash va ingliz tilida erkin muloqot qilishga zamin yaratadi. Jumladan (Simon Says, Bingo, Word Chain va boshqalar) hamda zamonaviy (Interactive Flashcards, Digital Word Search, Escape Room Games kabi) didaktik o'yinlar turlari, ularning yosh bosqichlariga mos qo'llanishi va afzalliklari tizimli tahlil qilingan.

Xulosa:

Shuningdek, fonetik, grammatik, leksik va tafakkurni rivojlantiruvchi o'yinlar misolida metodik tavsiyalar berilgan. O'yinlar jarayonida bolalar so'z boyligini oshirish, talaffuzni yaxshilash, muloqotda faol ishtirok etish va ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini rivojlantirishga erishadilar. Texnologiyalardan foydalanishning bir qancha imtiyozlari bor, maktabgacha yoshdagi bolalariga mos ravishda aqlli ta'lim platformalari, mobil ilovalar yoki elektron o'yinlar yordamida bu o'yinlarni joriy qilish mumkin. Hozirgi kunda, O'zbekistonning bir qator ta'lim tashkilotlarida SMART ta'lim tizimi va onlayn ta'lim platformalari mavjud, shuning uchun zamonaviy o'yinlarni qo'llash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYATLAR

1. Otaboyeva M. .R Chet tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi / Молодой ученый. — 2017. — № 4.2 (138.2). — С. 36-37 Матмуротова,

2. Olimova Gulrabo A. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o‘rgatishning psixologik shart-sharoitlari. Journal of economy tourism servis.

3. Chet tili darslarida interfaol uslublardan foydalanishning ahamiyati Молодой ученый. — 2017. — № 24.2 (158.2). — С. 38-39. Муминова, Ф.

4. M. Ingliz tilini o‘qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish Молодой ученый. — 2020. — № 18 (308). — С. 590-592. — Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. – М., 1959

5. Begmatov E., Ne‘matov H., Rasulov R. Leksik mikrosistema va uning tadqiq metodikasi (Sistem leksikologiya tezislari) O‘zbek tili va adabiyoti.

6. <https://sciencebox.uz/index.php/ajed>

7 <https://sciencebox.uz/index.php/ajed/article/view/13791>